

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSTITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.2025.27.12.FM/T.15.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SOLIYEVA MADINABONU MURODJON QIZI

**TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA LABORATORIYA
MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI
(fizika fani misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical science**

Soliyeva Madinabonu Murodjon qizi

Ta'lim samaradorligini oshirishda laboratoriya mashg'ulotlarini
takomillashtirish metodikasi (fizika fani misolida misolida)..... 3

Солиева Мадинабону Муроджон кизи

Методы совершенствования лабораторных занятий в целях повышения
эффективности образования (на примере предмета физики) 25

Soliyeva Madina Murodjon qizi

Methods of improving laboratory training in increasing educational efficiency
(on the example of physics)..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSTITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.2025.27.12.FM/T.15.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SOLIYEVA MADINABONU MURODJON QIZI

**TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA LABORATORIYA
MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI
(fizika fani misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2025.1.PhD/Ped 9431 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.namdtu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sobirova Mahbubaxon Yusupjanovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ismanova Odinaxon To‘lqinboyevna
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Azimova Ziyoda Ergashevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.2025.27.12.FM/T.15.05 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil “6” mart soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy. Tel: (69) 225-10-07; faks: (69) 225-76-75; e-mail: info@namdtu.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (132-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy. Tel: 69 225-10-07; faks: (69) 225-76-75; e-mail: info@namdtu.uz.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 19-fevral kuni tarqatildi.
(2026-yil 19-fevraldagi 17- raqamli reyestr bayonnomasi).



U.I. Erkaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

A.A. Abdukarimov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.Yu. Sharibayev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari doktori, profesor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim taraqqiyotida fizika fanining o'рни va ahamiyati tobora ortib borayotgan bir paytda uni samarali o'qitish usullari, axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, kvant hisoblash va nanoilm sohalaridagi yuksak taraqqiyot, o'z navbatida, fizika fanining chuqur o'rganilishini taqozo qilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim tizimida STEAM texnologiyasiga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir davrda, fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish global raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosiy shartlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu esa, o'z-o'zidan, laboratoriya ishlarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Chunki fizika – bu nazariy bilimlar majmui bo'libgina qolmay, balki to'g'ridan to'g'ri amaliyotga yo'naltirilgan, hayotiy hodisa va jarayonlarni tajriba asosida tushunishni talab qiluvchi fan hisoblanadi. Shu sababli, fizika ta'limini zamonaviy talablar asosida tashkil qilishda laboratoriya ishlarining sifatini oshirish, ularni ilg'or texnologiyalar bilan boyitish hamda amaliyotga joriy qilish jahon miqyosidagi muhim ilmiy-pedagogik yo'nalishga aylangan.

Dunyo miqyosida XXI asrning texnologik inqilobi, ilg'or ilmiy yutuqlar va innovatsion rivojlanishlar yetakchi mamlakatlarda, jumladan, Xitoy, Yaponiya, Koreya, AQSh, Germaniya, Rossiya kabi davlatlarda fizika fanini o'qitish jarayonini yangilash va takomillashtirish masalasi dolzarbdir. Yetakchi universtitetlar sanalgan Stenford, Oksford, Tokio universiteti va boshqalar fizika fanida eksperimental tajribalarni raqamlashtirish, simulyatsiya asosida virtual tajriba o'tkazish, real vaqt rejimidagi o'lchovlar va tahlillarni ta'limga integratsiya qilish yo'lida keng ko'lamli izlanishlar olib bormoqda. Ular o'zlarining ta'lim tizimlarini zamonaviy ilmiy asbob-uskuna va texnologiyalar bilan ta'minlash orqali talabalarni amaliy tajriba va nazariy bilimlar bilan bir vaqtda tanishtirishni maqsad qilib qo'yganlar. Bunday yondashuv natijasida laboratoriya mashg'ulotlari va amaliy tajriba, ilmiy faoliyatda mustahkam poydevor yaratishda, o'quvchilarni yaratish va innovatsiyalarni amalga oshirishga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so'nggi bir necha yillar mobaynida fizika ta'limiga qaratilayotgan e'tibor, o'qitishning tashkiliy, pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarining moddiy-texnik bazasini yaratish yo'lidagi islohotlar fizikadan laboratoriya mashg'ulotlariga xalqaro ilg'or tajribalar hamda raqamli texnologiyalarni joriy qilishni ko'rsatmoqda. Ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublari, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish va olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash, zamonaviy texnologik taraqqiyot sharoitida ertangi kun uchun innovatsion yondashuvlarni chuqur o'zlashtira oladigan, fizika sohasida yangi ixtirolar yarata oladigan iste'dodli yosh avlodni tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Bu esa fizikadan laboratoriya ishlarini tashkillashtirishda innovatsion va mediatexnologiya vositalarini dars jarayoniga tatbiq qilish va o'qitishning metodik asoslarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan yangi tahrirdagi O'RQ-637-son¹ "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, 2019-yil 29-apreldagi PF-

¹ . <https://lex.uz/docs/-5013007> O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan yangi tahrirdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.

5712-son² “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son³ “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son⁴ farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son⁵ “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida” farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda mazkur tadqiqot ishi ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda fizika ta’limini rivojlantirish yo‘lidagi izlanishlar K.Tursunmetov, M.Kurbonov, M.Djorayev, B.Mirzaaxmedov, Y.Axmedov, P.Jalolova, M.Komilov va boshqa ko‘plab ilm-fan va pedagogika mutaxassisleri tomonidan olib borilgan.

Yurtimizning yetakchi fizik olimlari, jumladan, I.Zohidov, D.Yusupov, D.Alijonov, Sh.Karshibayev, A.Nortojiyev, E.Onarqulov, N.Sodiqov, X.Quybakov, A.Xo‘jayev, Sh.Abdvoxidov, O.Toshpo‘latova, M.Ergasheva kabi mutaxassislar, fizika fanini o‘qitishda kompyuter texnologiyalari va innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini chuqur o‘rganib, bu sohadagi yangi pedagogik metodlarni taklif etishdi.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) olimlari, jumladan, O.I. Nasluzova, E.G. Soboleva, E.P. Tesleva, G.I. Melnik, I.V. Seryukova, E.V. Tinina va N.Chiganova, V.Polonkova va A.Filanovich kabi ilmiy ish olib borgan mutaxassislar, fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borish va ushbu jarayonlarda texnika xavfsizligiga rioya qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratganlar.

Xorijlik olimlar, jumladan, K. Smit, C.T. de Brabander va R.L. Martens, Zemenu Mihret, J. Herbert va J. Nzabahimana, R.P va E.Soderstrom kabilar fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘quvchilarga tushunarli va samarali, fanlararo bog‘liqlikda o‘qitish va ta’lim olayotgan o‘quvchilarga kasbga yo‘naltirilgan bilim berish bo‘yicha tadqiqotlar olib borganlar.

Fizika fani va undagi laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar, asosan, faqat pedagogik jihatlarga e‘tibor qaratgan. Biroq,

² <https://lex.uz/ru.docs/-4312785> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.

³ <https://lex.uz/docs/-5338558> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-sonli qarori.

⁴ <https://lex.uz/docs/-5841063> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

⁵ <https://lex.uz/docs/-6600413> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son⁵ “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida” farmoni.

ushbu izlanishlar jarayonida o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, laboratoriya mashg'ulotlarining tashkiliy va texnik tamoyillari kabi muhim omillar, yetarlicha o'rganilmagan. Ta'lim sifatini oshirish maqsadida laboratoriya mashg'ulotlarini turli innovatsion va mediatexnologiya vositalari orqali boyitish, zamon talablariga mos ravishda ilmiy izlanishlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlarini "Pedagogik ta'lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: ta'lim samaradorligini oshirishda laboratoriya mashg'ulotlarini takomillashtirish metodikasini takomillashtirish

Tadqiqotning vazifalari:

akademik litseylarda fizika fanini o'qitishning o'ziga xos jihatlari va undagi laboratoriya ishlarini tashkil etishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

akademik litseyda fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishning asosiy tamoyillarini boyitish va innovatsion yondashuv asosida olib boriladigan laboratoriya darslarining o'tkazilish algoritmini ishlab chiqish;

fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish;

fizika darslari hamda laboratoriya ishlari samaradorligini oshirish uchun o'quv metodik ta'minotni boyitish.

Tadqiqotning obyekti sifatida akademik litseylarida fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini o'qitish jarayonini belgilab, tajriba-sinov ishlariga Farg'ona, Andijon, Namangan va Jizzax viloyatlaridagi Ichki ishlar vazirligi qoshidagi akademik litseylardan 399 nafar o'quvchi-respondentlar jalb etildi.

Tadqiqotning predmeti: akademik litseylarda fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini innovatsion texnologiyalar va mediatexnologiyalar vositasida o'qitishning mazmuni, shakllari, metod hamda vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida o'qitish metodikasi soxasida shu kungacha yaratib kelingan ilmiy izlanishlarni nazariy tahlil qilish, diagnostik (kuzatish, anketa, so'rovnoma), tajriba-sinov hamda matematik-statistik usullariga murojaat qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

akademik litseylarda fizika fanini o'qitishning o'ziga xos jihatlari va undagi laboratoriya ishlarini tashkil etishning didaktik imkoniyatlari o'quvchilarning tabiiy fanlarga qiziqishini jadallashtirishning pedagogik shart-sharoitlari hisoblangan interaktiv metodlar, ilmiy dunyoqarash, pedagogik kreativlik kabi innovatsion ta'lim texnologiyalari tadbiq qilish zarurati bilan asoslangan;

akademik litseyda fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishning asosiy tamoyillarini boyitish va innovatsion yondashuv asosida olib boriladigan laboratoriya darslarining o'tkazilish algoritmini ishlab chiqish uchun zamonaviy ta'lim resurslaridan maqsadli foydalanish, o'quvchilarning faol ishtirokini

ta'minlash, muammoli vaziyatlarni yaratish va o'quv jarayonini tashkillashtirishning yangi usullari hisoblangan "Vitaminlar", "A4 format", "Drama analiz", "Keys-stadi", "Fizik esse", "X-faktor" texnologiyalarini tadqiq qilish asnosida takomillashtirilgan;

fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini mediatexnologiyalar asosida tashkil qilish fizik hodisalarni vizuallashtirish, tajribalarni xavfsiz muhitda o'tkazish, parametrlarni o'zgartirish va natijalarni real vaqt rejimida kuzatish kabi didaktik imkoniyatlarga ega bo'lgan elektron simulyatsiyalardan foydalanish asosida takomillashtirilgan;

fizika darslari hamda laboratoriya ishlari samaradorligini oshirish uchun o'quv-metodik ta'minotni boyitish maqsadida fizika ta'limi jarayonida laboratoriya mashg'ulotlariga zamonaviy usullar tadqiq qilingan, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, darsning didaktik va texnik imkoniyatlarini o'zida mujassam etgan interaktiv simulyatsiya, virtual laboratoriya ishlari yaratilgan va bu orqali fizika mashg'ulotining didaktik ta'minoti takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

laboratoriya mashg'ulotlarini ilmiy-texnika yutuqlari va mediatexnologiyalari asosida o'tkazish bo'yicha "Fizikadan laboratoriya ishlarini o'tkazish" nomli uslubiy qo'llanma yaratilgan va nashr qilingan (DGU № 41461. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 06.07.2024);

fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini virtual holda o'tkazilishga yordam beruvchi hamda mavzularni zamonaviy metodlar yordamida o'qitishni ta'minlovchi "Fizikadan virtual laboratoriya ishlari" nomli elektron dastur ishlab chiqilib, Farg'ona, Andijon, Namangan va Jizzax viloyatlarining IIV akademik litseylarida sinov darslari o'tkazildi va o'quvchilarning fanni o'zlashtirish darajasini oshirishga erishildi (DGU № 49999. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi 17.04.2025).

Tadqiqot natijalarining ishonchligi olib borilgan tadqiqotda innovatsion va mediatexnologiyalarni qo'llashda foydalanilgan ma'lumotlar, olingan natijalar, xulosa va ular haqidagi taqrizlarni rasmiy hamda ilmiy manbalarga asoslanganligi, pedagogik tajriba-sinov ishlari samaradorligi hamda sifat ko'rsatkichlari matematik-statistik usullar vositasida izohlanganligi, mazkur tadqiqot ishining ilmiy asoslangan natijalari OAK tomonidan tasdiqlangan respublika va xorijiy jurnal hamda ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida nashr etilganligi, yaratilgan o'quv-uslubiy qo'llanma va dasturiy ta'minot vositalari amaliyotga joriy etilganligi va olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati o'quvchilarning tajriba va bilim olishdagi o'rini ilmiy ravishda tahlil qilib berishi, laboratoriya ishlari va ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning pedagogik samaradorligini, uning ilmiy tahlilini, metodologik yondashuvlarning yangi konsepsiyalarini yaratishga imkon berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati innovatsion va mediatexnologiya vositalarining ta'lim jarayoniga kiritilishi o'quvchilarning ilmiy faoliyatini faollashtirishi, o'zlashtirish darajasini yaxshilashi va o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi, o'quvchilarga fizikaviy hodisalarni tajriba orqali yanada tushunarli

va qulay tarzda o'rganish imkoniyatini yaratilishi, nazariy bilimlarni mustahkamlashi, amaliyotga tatbiq etish va ilmiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini innovatsion yondashuvlar va mediatexnologiyalar vositasida o'qitishni takomillashtirish yuzasidan olingan natijalar asosida:

akademik litseylarda fizika fanini o'qitishning o'ziga xos jihatlari va undagi laboratoriya ishlarini tashkil etishning didaktik imkoniyatlari o'quvchilarning tabiiy fanlarga qiziqishini jadallashtirishning pedagogik shart-sharoitlari hisoblangan interaktiv metodlar, ilmiy dunyoqarash, pedagogik kreativlik kabi innovatsion ta'lim texnologiyalari tadbiq qilish zarurati bilan asoslashga oid taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Andijon viloyatidagi IIV Andijon akademik litseyida, Farg'ona viloyatidagi IIV Farg'ona akademik litseyida, Namangan viloyatidagi IIV Namangan akademik litseyida, Jizzax viloyatidagi IIV Jizzax akademik litseyida amaliyotga tadbiq etildi (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika Ta'lim markazining 2025-yil 2-maydagi 01/11-5-315-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilarga fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini innovatsion va mediatexnologiyalar yordamida tashkil etish, fan va texnika yutuqlarini amalda bajarish imkoniyati, eksperimentning maqsadini anglashlari, mashg'ulotga shunchaki dars emas, kichik ilmiy tadqiqot ishi deb baho berishlariga erishiladi;

akademik litseyda fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishning asosiy tamoyillarini boyitish va innovatsion yondashuv asosida olib boriladigan laboratoriya darslarining o'tkazilish algoritmini ishlab chiqish uchun zamonaviy ta'lim resurslaridan maqsadli foydalanish, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, muammoli vaziyatlarni yaratish va o'quv jarayonini tashkillashtirishning yangi usullari hisoblangan "Vitaminlar", "A4 format", "Drama analiz", "Keys-stadi", "Fizik esse", "X-faktor" texnologiyalarini tadbiq qilish asnosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston-24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" teleradiokanali tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va tarqqiyot", "O'zbekiston yoshlari" nomli dasturlarning 2025-yil fevral va aprel oylaridagi sonlari dastur va ssenariysini tayyorlashda foydalanildi. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" davlat muassasasining 2025-yil 21-apreldagi 05-09-503-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mazkur ko'rsatuvlarning mazmunan shakllanishi ta'limning interaktiv va ko'ngilochar shaklini ishlab chiqishda, laboratoriya mashg'uloti davomida erishgan natijalarini turli darajalarda ko'rsatishga hamda ilmiy-texnik tafakkurlarni kamol topishiga olib keldi;

fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini mediatexnologiyalar asosida tashkil qilish fizik hodisalarni vizuallashtirish, tajribalarni xavfsiz muhitda o'tkazish, parametrlarni o'zgartirish va natijalarni real vaqt rejimida kuzatish kabi didaktik imkoniyatlarga ega bo'lgan elektron simulyatsiyalardan foydalanishga oid amaliy takliflardan geologiya fanlari univertitetida 2023-2025-yillarda bajarilgan "Yuqori aniqlikdagi tadqiqot usullarini qo'llash orqali Turbay koni ma'danlarining mineral tarkibini asosiy va hamroh komponentlarning uchrash shakllarini aniqlash" deb nomlangan loyiha doirasida foydalanilgan (Geologiya fanlari univertitetining

2025-yil 10-sentabrdagi 1849-04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada fizikadan laboratoriya ishlarida pedagogik va axborot texnologiyalari birligini ta'minlovchi didaktik va uslubiy vositalardan foydalanish imkoniyalari kengaytirildi;

fizika darslari hamda laboratoriya ishlari samaradorligini oshirish uchun o'quv-metodik ta'minotni boyitish maqsadida fizika ta'limi jarayonida laboratoriya mashg'ulotlariga zamonaviy usullar tadbiiq qilingan o'quv-uslubiy qo'llanmalar, darsning didaktik va texnik imkoniyatlarini o'zida mujassam etgan interaktiv simulyatsiya, virtual laboratoriya ishlarini yaratish va bu orqali fizika mashg'ulotining didaktik ta'minotini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan "Fizika fanidan laboratoriya ishining elektron dasturiy ta'minoti" nomli elektron hisoblash mashinalari uchun ishlab chiqilgan dasturni yaratishda foydalanilgan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan 2024-yil 19-iyulda № DGU 41461-son guvohnoma bilan ro'yxatdan o'tkazilgan (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika Ta'lim markazining 2025-yil 2-maydagi 01/11-5-315-sonli ma'lumotnomasi). Natijada fizika o'qitish jarayonida foydalaniladigan innovatsion texnologiyalar orqali amaliy ko'nikmalarni egallashlariga, ilmiy tajriba va kuzatuvlar orqali fizika qonuniyatlarini to'g'ri anglashlariga imkon yaratildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha umumiy hisobda 20 ta ilmiy ish amalga oshirilgan. Shulardan 2 ta uslubiy qo'llanma, 9 ta O'zbekiston Respublikasi OAK doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalari sifatida chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda e'lon qilingan. Ushbu maqolalarning 4 tasi respublika miqyosidagi ilmiy jurnallarda, qolgan 5 tasi esa xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan tomonidan 2 ta elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dastur uchun mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot mavzusi bo'yicha respublika, MDH mamlakatlari va xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlari sharhi bayon qilingan, ishning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, dissertatsiyaning Respublika va tadqiqot ishi bajarilgan ta'lim muassasasining fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi hamda ishning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati shuningdek, amaliyotga joriy qilinganligi, yaratilgan ilmiy ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning "Akademik litsey o'quvchilarining fizikadan o'quv faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida ta'lim muassasalarida fizikadan nazariy va amaliy darslarini tashkil qilishning


pedagogik xususiyatlari, laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari va o'tish jarayonining mavjud holati yoritilgan.

Ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularga samarali yechimlar taklif etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu maqsadda o'quvchilarga fizikadan darslarni tashkil etish jarayonining pedagogik jihatlari, shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilar e'tibor qaratishi lozim bo'lgan asosiy omillar tahlil qilindi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Fizika darslarini takomillashtirishning pedagogik jihatlari

Aniqlangan omillardan ba'zilari dars sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'quvchilarning bilim darajasiga moslashgan metodik yondashuvlar, interaktiv dars uslublari, amaliy mashg'ulotlarning yetarli darajada tashkil etilishi, shuningdek, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini doimiy rivojlantirish. Ushbu tavsiyalar orqali ta'lim muassasalarida fizika fanini samarali o'qitish jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning fan sohasidagi qiziqishini oshirish va ularning bilim sifatini yaxshilash mumkinligi ta'kidlanadi.



2-rasm. Fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarida shakllanadigan ko'nikmalar

Fizika darslarida o'quvchilarning laboratoriya ishlarini o'rganishi va amalda bajarishi natijasida quyidagi ko'nikmalarining rivojlanishi aniqlandi (2-rasmga qarang).

Tadqiqotimiz davomida fizika fanidagi laboratoriya mashg'ulotlarini innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida rivojlantirish bo'yicha olib borilgan nazariy tahlillar yordamida an'anaviy laboratoriya mashg'ulotlari bilan taklif etilayotgan interfaol va virtual laboratoriyalarga asoslangan metodikaning asosiy jihatlari quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

An'anaviy va innovatsion ta'lim metodlariga asoslangan laboratoriyalar bo'yicha tadqiqotlar tahlili.

№	Mezonlar	An'anaviy laboratoriya mashg'uloti	Interfaol va virtual laboratoriyalarga asoslangan metodika
1	O'qitish yondashuvi	O'qituvchi markazda, o'quvchilar ko'rsatma asosida bajaradi	O'quvchilar markazda, o'qituvchi mustaqil izlanishga yo'naltiradi
2	O'quvchining faolligi	O'quvchilar tayyor ko'rsatmaga amal qiladilar va ko'pincha o'rta yoki past baho olishadi	O'quvchilar tajribani mustaqil rejalashtiradi, tahlil qiladi, xulosa chiqaradi va yuqori natijaga erishadi
3	Laboratoriya jihozlari	Ba'zan yetishmaydigan real jixozlar mavjud	Real va virtual laboratoriyalar birgalikda qo'llaniladi
4	Xavfsizlik	Elektr toki, mexanik asboblardan va h.k lar bilan bog'liq bo'lgan xavf mavjud	Virtual muhitda xavfsiz va xatolardan qo'rqmasdan tajriba o'tkazish mumkin
5	Tajribaning takrorlanishi va vizualizatsiya darajasi	Vaqt, jihoz va resurs sababli cheklangan	Cheksiz takrorlanishi, yuqori grafika hamda animatsiyalar orqali tushunish chuqurlashadi
6	Individual yondashuv	Barcha o'quvchilarning individual o'rganish sur'ati bir xil bo'ladi	Har bir o'quvchi mustaqil shug'ullanishi mumkin
7	Axborot texnologiyalaridan foydalanish	Faqat laboratoriya jihozlari vositasida tajriba bajariladi	Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va onlayn platformalar keng qo'llaniladi
8	Nazariy va amaliy bog'liqlik	Har doim ham nazariya va tajribadagi natijalar mos kelmaydi	Kuchi integratsiya ta'minlanadi
9	Baholash	Natijaga qarab baholash	Jarayon va natija asosida kompleks baholash
10	O'quvchilarning qiziqishi	O'quvchilar ko'pincha passiv ishtirok etadilar	Interfaol va innovatsion muhit sababli yuqori darajada qiziqish uyg'onadi
11	Zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirish	Amaliy, texnik va kuzatuvchanlik kompetensiyalari shakllanadi	Bir vaqtning o'zida tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik va muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalari ham rivojlanib boradi

Bundan tashqari laboratoriya ishlarini o'tkazish o'quvchilarni fizikadan olgan bilimlarini baholashning yana bir usuli hisoblanadi. Mavzuni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar qiyinchiliksiz eksperiment haqida tasavvur hosil qiladi va amalda bajara oladi. Bu maqsadga biz o'quvchilarda fanga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish orqali erishishimiz mumkin. Barcha ta'limda bo'lgani kabi, dars samaradorligiga erishish uchun talabalar motivatsiyalangan va jalb qilingan bo'lishi bo'lishlari lozim. Bu ayniqsa fizikadan laboratoriya ishlarida qiyinchilik tug'dirishi mumkin, chunki o'quvchilar tomonidan ular zerikrli va ortiqcha deb hisoblanadi. O'tkazilayotgan tadqiqotimizning asosiy maqsadi ham laboratoriya ishlarining sifati va nufuzini saqlab qolish hamda o'quvchi yoshlarning ilmiy fikrlashini shakllantirishdan iborat.

Dissertatsiyaning **“Laboratoriya ishlarini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni”** deb nomlangan ikkinchi bobida akademik litsey o'quvchilariga fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini olib borishga yangicha urg'u berilgan bo'lib, darslarni o'qituvchining nazorati ostida, o'quvchilarning o'zlari amalga oshiradilar. Eksperimentni bajarish jarayonida o'quvchilarga turli innovatsion hamda mediatexnologiyalar yordam beradi. Bu esa o'quvchilarning yangilik yaratishga bo'lgan ichki qobiliyatlarini uyg'otishga ma'lum darajada ko'makdosh bo'ladi.

Laboratoriya ishlarining samarali o'tishi uchun faqat texnik jihatlarning yoritilishi yetarli emas. Pedagogik-psixologik yondashuvlar o'quvchilarning o'qish motivatsiyasini oshirish, ularning ilmiy tafakkurini rivojlantirish va o'quv jarayonida samarali ishtirok etishlariga yordam beradigan muhim omildir. Shuning uchun, fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda pedagogik-psixologik yondashuvlarning zarurati ayniqsa ahamiyatlidir.

Pedagogik-psixologik yondashuvlar — bu o'quvchilarning psixologik holatini, ehtiyojlarini va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish tizimidir. Bunday yondashuv, o'quvchilarning o'qishdagi qiziqishini, motivatsiyasini, mustaqil ish ko'rish ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan. Pedagogik-psixologik yondashuvlar, ayniqsa, laboratoriya ishlarida muhim rol o'ynaydi, chunki bu turdagi mashg'ulotlar ko'pincha o'quvchilarga yangi bilimlarni faqat o'zlari mustaqil ravishda kashf etish imkonini beradi. Shu bilan birga, laboratoriya ishlarida o'quvchilarning psixologik holatini tushunish va ularni motivatsiya qilish, bilimlarni yaxshi o'zlashtirishni ta'minlashga yordam beradi.

Fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish ta'limning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Har bir o'quvchi o'zining kognitiv (aql-zakovat) rivojlanish bosqichiga, emotsional va ijtimoiy holatiga ko'ra turlicha o'rganadi. Bu holatlarni e'tiborga olgan holda laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish, o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va mazmunli qiladi. Misol tariqasida fizikadan laboratoriya mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarga turli darajadagi tajriba topshiriqlari beriladi: oddiy, murakkablashtirilgan, kengaytirilgan shakllarda. Har bir topshiriq bilim, ko'nikma va fikrlash darajasini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchi esa o'z imkoniyatiga qarab tajribani bajaradi va xulosani mustaqil chiqaradi. Masalan: “Nyutonning ikkinchi qonunini tajriba orqali isbotlash” laboratoriya ishida:

1. Boshlang'ich darajadagi o'quvchilar kuch va tezlanish orasidagi bog'liqlikni oddiy mexanizm orqali aniqlaydi.

2. O'rta darajadagi o'quvchilar bir nechta o'zgaruvchilarni hisobga olib jadval tuzadi.

3. Yuqori darajadagi o'quvchilar esa xatoliklarni hisobga olib, tajribaning nazariy asosini tahlil qiladi.

Ichki rag'batlantirish o'quvchining o'z shaxsiy ehtiyoji, bilimga bo'lgan qiziqishi yoki maqsadga erishishga bo'lgan ichki intilishidan kelib chiqadi. O'quvchi tajriba o'tkazish, yangi narsani kashf etish yoki savollarga mustaqil javob topish orqali qoniqish hosil qiladi. Fizika fanida bu turdagi motivatsiyani shakllantirish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

a) Muammoli savollar berish – masalan, “Nega suv elektr toki o'tkazadi?”, “Nima uchun yorug'lik sinadi?” kabi savollar orqali o'quvchini o'ylashga undash.

b) Eksperiment natijalarini oldindan taxmin qilish – tajriba natijalarini oldindan bashorat qilish va natijani haqiqat bilan solishtirish orqali o'quvchida ichki qiziqish uyg'otiladi.

c) Mustaqil izlanishga undash – o'quvchiga laboratoriya topshirig'ini ijodiy yondashuv bilan mustaqil bajarishga imkon yaratish, uni yangi kashfiyotga olib keladi.

Tashqi rag'batlantirish esa o'quvchining tashqi omillar, ya'ni baho, mukofot, o'qituvchi yoki ota-onaning rag'bati orqali bilim olishga bo'lgan intilishidir. Bu jarayonni quyidagicha kuchaytirish mumkin:

a) Rag'batlantiruvchi baholash tizimi – laboratoriya ishlarida natijalarga ko'ra baholash, eng faol ishtirokchilarga ball yoki diplomlar taqdim etish.

b) Taqdirlash va tan olish – eng yaxshi eksperiment ishi yoki topqir yondashuvlar uchun e'tirof etish, dars davomida ijtimoiy maqom berish.

c) Jamoaviy musobaqalar tashkil etish – kichik guruhlar o'rtasida eksperiment poygasi yoki kashfiyot tanlovlarini o'tkazish orqali tashqi motivatsiya kuchaytiriladi.

Tashqi rag'batlantirish, to'g'ri qo'llanilganda, ichki motivatsiyani mustahkamlovchi omilga aylanishi mumkin.

Olib borgan tadqiqotlar davomida fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlari jarayonida interfaol ta'lim usullarini qo'llash bir qator muhim afzalliklarni keltirib chiqarishi aniqlandi (3-rasmga qarang).

Guruhli faoliyatlar va rolli o'yinlar

Muammoli vazifalar


Boshqaruvli va erkin munosabatlar

3-rasm. Interfaol ta'lim usullarining afzalliklari.

Fizikadan laboratoriya ishlarini takomillashtirish va o'quvchilarning amaliy bilimlarini chuqurlashtirishga qaratilgan bir qator interaktiv o'quv metodlari ishlab chiqildi. Xususan, “X-faktor”, “A4 format”, “Fizik esse”, “Drama analiz”, “Keys

stadi” hamda “Vitaminlar” kabi metodlar laboratoriya mashg‘ulotlarini zamonaviy talablarga mos holda tashkil etish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, integrativ yondashuv va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Fizika fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish va talabalarning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida “X-faktor” deb nomlanuvchi interfaol o‘qitish metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur metod mashg‘ulotning har bir bosqichini izchil va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda amalga oshirishga xizmat qiladi. “X-faktor” metodining mohiyati shundan iboratki, u o‘quv jarayonini oltita asosiy bosqich asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Har bir bosqich talabalarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, laboratoriya ishining mazmuni, maqsadi va natijalariga muvofiq tarzda olib boriladi (4-rasmga qarang).



4-rasm. “X-faktor” interfaol metodining qo‘llanilish tartibi

Tadqiqotimiz davomida o‘quvchilarning fanlar bo‘yicha bilim darajasini aniqlashning yangi va samarali usullarini izlash jarayonida esse yozish metodini qo‘llash o‘zini oqlaganini kuzatdik. Bu metod, avvalo, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, mantiqiy tahlil qilishini va o‘z fikrini yozma tarzda ifodalash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Biroq, an‘anaviy tarzda esse yozish usuli asosan til va adabiyot fanlarida qo‘llanilib, tabiiy fanlar, xususan fizika fanida bu yondashuv deyarli ishlatilmagan.

Shu bois biz o‘z tadqiqotimizda yangilik sifatida “Fizik esse” metodini laboratoriya mashg‘ulotlari jarayoniga tatbiq etishni taklif etdik. Mazkur metod laboratoriya ishining yakuniy bosqichi — xulosa yozish qismida qo‘llaniladi. O‘quvchi bajarilgan eksperiment natijalarini shunchaki qayta aytib bermasdan, ularni tahlil qilib, nazariy bilimlar bilan bog‘laydi, jarayonning mohiyatini o‘z ilmiy qarashlari orqali yoritadi (2-jadval).


Yuqoridagi singari zamonaviy metodlar asosida fizikadan laboratoriya ishlarini tashkil etish natijasida birinchidan, vaqt tejamkorligiga erishamiz, o‘qituvchi faqat nazoratchi va rag‘batlantiruvchi sifatida ishtirok etadi. Ikkinchidan, o‘quvchilarda hamjihatlikda ishlash, erkin fikr yuritish malakasi shakllanib boradi. Uchinchidan, o‘qituvchi o‘quvchilarning metakognitiv bilimlari vositasida summativ baholashni amalga oshirishi mumkin.

2-jadval

Fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlariga mos bo‘lgan esse mavzulari

Laboratoriya mavzulari	Esse mavzulari
Nyutonning 2-qonunini tekshirish	Kuch harakatni yaratuvchi sabab
Issqlik miqdorini aniqlash	Issqlik energiya shakllarining yuragi
Qarshiliklarni ketma-ket va parallel ulash	Tokning yo‘li tanlovga bog‘liq
Linzalar yordamida tasvir hosil qilish	Ko‘rish – fizik jarayonlarning go‘zal natijasi
Fotoeffekt hodisasini o‘rganish	Energiya kvantlari – zamonaviy fizikaning kaliti.

Fizikadan laboratoriya ishlarini tashkil qilishda mediatexnologiyaning quyidagi turlaridan foydalanishimiz mumkin (5-rasmga qarang).



5-rasm. Mediatexnologiya turlari.

Jahon standartlari darajasida bilim olish uchun eng nufuzli oliygohda o‘qish shart emas. O‘quvchilar va umri davomida bilim olishdan to‘xtamaydigan izlanuvchilar uchun bir qancha ta’lim platformalari mavjud. Fizika va boshqa aniq va tabiiy fanlarni chuqur o‘zlashtirish uchun jahonda va yurtimizda Khan academy, Ta’lim.uz saytlari faoliyat yuritmoqda.

Fizikaning amalda bajarishi qiyin eksperimental tajriba ishlarini virtual laboratoriyalar yordamida bajarishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2024-yil 1-oktabr “O‘qituvchi va murabbiylar” kuniga bag‘ishlangan nutqida, maktablar va barcha ta’lim tashkilotlarida fizika va tabiiy fanlarni virtual laboratoriyalar yordamida o‘qitish uchun har bir viloyatda 10 tadan maktablarda virtual laboratoriya xonalari yaratiladi degan taklifni berdi. Bu ham fizika fanini maktab davridanoq o‘quvchilarga yetarlicha tushuntirish imkoniyatini beradi.

Virtual laboratoriyalar berilgan haqiqiy laboratoriya ishini butunlay o'zgartirmasdan, faqat uni to'ldirishi kerak. Bundan tashqari, virtual laboratoriya mashg'ulotlari faqat o'quvchi haqiqiy qurilmalar bilan tanishgandan so'ng mashg'ulotda qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Quyida virtual laboratoriyalar tomonidan taqdim etilayotgan asosiy ustunliklar tahlil qilinadi.

➤ Avvalo, real sharoitda yuzaga kelishi mutlaqo mumkin bo'lmagan yoki yuqori xavfli bo'lgan jarayonlarni modellashtirish imkoniyati virtual laboratoriyalar orqali ro'yobga chiqarilishi mumkin. Bu esa nazariy bilimlarni amaliy tajriba asosida mustahkamlash imkonini beradi.

➤ Bundan tashqari, zamonaviy kompyuter texnologiyalarining qo'llanilishi natijasida, fizikaviy tajribalarda bevosita kuzatish imkoni bo'lmagan, masalan, nanozarrachalarning harakati kabi murakkab jarayonlarni aniq kuzatish mumkin bo'lmoqda. Bu ilmiy izlanishlarda aniqlik va ishonchlilikni ta'minlaydi.

➤ Virtual muhit tadqiqotchilarga jarayonlarning eng nozik jihatlarini o'rganish imkonini beradi. Xususan, bir soniya ichida sodir bo'ladigan yoki yillar davomida kechuvchi hodisalarni modellashtirish orqali turli vaqt shkalalarida bo'ladigan voqealarni chuqur tahlil qilish mumkin.

➤ Shuningdek, xavfsizlik masalasi virtual laboratoriyalarning yana bir muhim ustunligidir. Yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari yoki kimyoviy jihatdan xavfli moddalarga aloqador tajribalarni xavfsiz tarzda amalga oshirish orqali, tajriba o'tkazishda inson salomatligini muhofaza qilish imkonini beradi.

➤ Virtual laboratoriyalar yordamida tajribalarni avtomatik tarzda, turli parametrlarida qayta-qayta bajarish imkoni mavjud. Bu esa parametrlarining o'zgarishini tahlil qilish, ularning bir-birlariga bo'lgan bog'liqligini aniqlash va optimal natijalarga erishish uchun muhim vosita hisoblanadi.

➤ Va nihoyat, virtual laboratoriyalar masofaviy ta'lim uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Agar talaba yoki tadqiqotchi muayyan sabablarga ko'ra an'anaviy laboratoriyalardan foydalana olmasa, u holda ularning virtual muqobillari orqali ta'lim jarayonini to'xtatmasdan davom ettirish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bu esa bilim olishda teng imkoniyatlarni ta'minlaydi va ta'limning uzluksizligini kafolatlaydi.

Tadqiqot ishimiz mobaynida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda Visual Basic 6.0 dasturi yordamida fizikadan virtual laboratoriya ishlari to'plamini ishlab chiqdik. Mazkur loyiha doirasida fan o'qituvchilari va o'quvchilar tajriba sharoitlarining vizual ifodasini ko'rishlari va fizikaviy hodisalarning modellashtirilgan tahlilini amalga oshirish imkoniga ega bo'ladilar.

Yaratilgan dastur akademik litsey o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, fizikaning mexanika, termodinamika, elektr va magnetizm, optika va yarimo'tkazgichlar fizikasi bo'limlariga tegishli bo'lgan 20 ta laboratoriya ishlarini o'z ichiga oladi. Bu virtual laboratoriya ishlarining yana bir qulayligi fizika fani o'qituvchilari, o'quvchilar va xatto mustaqil fizika faniga qiziquvchi o'quvchilar ham foydalanishlari mumkin. Dasturni ishga tushirganimizda ekranda quyidagicha oyna hosil bo'ladi. Har bir bo'limda to'rttadan laboratoriya ishi mavjud bo'lib, ular

aniq bir qonunni tajriba yordamida tekshirish yoki mavzuni mustahkamlash uchun ishlab chiqilgan (6-rasmga qarang).

FIZIKADAN VIRTUAL LABORATORIYALAR
Akademik litseylar uchun

MEXANIKA

- Gorizontga burchak ostida otilgan jism harakatini
- Matematik mayatnik yordamida g ni aniqlash
- Tekis tezlanuvchan harakatni o'rganish
- Sirpanish ishqalanish koefitsiyentini aniqlash

TERMODINAMIKA

- Broun harakatini o'rganish
- Gey-Lyussak qonunini o'rganish
- Termodinamikaning I qonunini o'rganish
- Yung modulini aniqlash


ELEKTR VA MAGNETIZM

Elektr maydonini o'ranish

O'tkazgichlarning ketma-ket ulanishini

O'tkazgichlarning parallel ulanishini o'rganish

Magnit maydon induksiyasini aniqlash





YARIMO'TKAZGICHLAR FZIKASI

- Yarimo'tkazgichli diodlarni o'rganish
- Yarimo'tkazgichlarning manqilingan zonasini aniqlash
- Xoll effektini o'rganish
- Elektronning elektr va magnit maydonlaridagi harakatini

OPTIKA

- Shishaning sindirish ko'rsatkichini aniqlash
- Linzaning fokus masofasini aniqlash
- Fotoeffekt hodisasini o'rganish
- Yorug'likning to'lqin hossalarini o'rganish






6-rasm. Fizikadan virtual laboratoriyalar

Ilmiy tadqiqot ishini shakllantirish va tahlil qilish natijasida o'quvchilarning fizika fanida o'rgangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini rivojlantirish uchun "Laboratoriya ishlarini innovatsion texnologiyalar va mediatexnologiyalar yordamida takomillashtirish modeli ishlab chiqildi (7-rasmga qarang). Fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini noan'anaviy tarzda turli metodlar, o'quvchilar bilimini baholashning yangicha usullari va tasavvur qilish qiyin mavzular, moddiy-texnik ta'minoti yetarlicha bo'lmagan ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni virtual laboratoriyalardan foydalangan holda tashkil etish, darslarni va laboratoriya ishlarini mustaqil o'rganish uchun elektron ta'lim resurslari va mazmunan takomillashtirilgan metodik ta'minot singdirildi.

Fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini innovatsion va mediatexnologiyalar asosida tashkil etish modeli mazkur dissertatsiya ishining markaziy g'oyalaridan biri sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, unda o'quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuv namoyon bo'ladi. Ushbu modelda ko'rib chiqilgan har bir masala — laboratoriya mashg'ulotlarining mazmuni, metodik ta'minoti, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro aloqasi hamda natijalarni tahlil qilish mexanizmlari chuqur ilmiy asosda tahlil qilinib, ularning har biri o'zaro bog'liq tarkibiy qismlar sifatida yagona pedagogik tizimni tashkil etadi.

Tadqiqotda innovatsion yondashuvlar va mediatexnologiyalardan oqilona foydalanish, an'anaviy o'qitish shakllarini raqamli ta'lim vositalari bilan uyg'unlashtirish orqali, laboratoriya mashg'ulotlarining mazmunan boyitilishi, talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish hamda ilmiy izlanish ko'nikmalarining shakllanishi ta'minlanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, tizimli yo'lga qo'yilgan oqilona pedagogika modeli nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki ta'lim ishtirokchilarining innovatsion tafakkurini rivojlantirish, ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirish va zamonaviy ta'lim muhitida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi.



7-rasm. Laboratoriya mashg'ulotlarini innovatsion texnologiyalar yordamida rivojlantirish modeli

